TOG`AY MUROD ASARLARIDA MILLIYLIKNING TARANNUM ETILISHI

https://doi.org/10.5281/zenodo.6531850

Abdumo`minova Dildora Oybek qizi
Termiz davlat Universiteti
O`zbek filologiyasi fakulteti
Talabasi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada Surxon vohasida yashab ijod etgan yozuvchi Tog`ay Murodning hayot yo`li, uning ijodiy faoliyati haqida fikr yuritiladi. Surxon vohasi haqiqiy milliyligini saqlagan viloyat hisoblanadi. Bu vohada juda ko'plab yozuvchi va shoirlar tug'ulib o'sgan.*

Kalit so`z:*Esse, qissa, roman, istibdod,hikoya, chanqovuz, obraz, syujet*

Surxon vohasi haqida gap ketganda kishilar ko'z oldida qo'lida do'mbira ushlagan baxshilar, chanqobuz chalayotgan momolar-u kashta gulli ko'ylak kiygan uzun sochli qizlar gavdalanadi. Surxon vohasi haqiqiy milliyligini saqlagan viloyat hisoblanadi. Bu vohada juda ko'plab yozuvchi va shoirlar tug'ulib o'sgan. Masalan, Shukur Xolmizrayev, Tog'ay Murod, Shafoat Raxmatullayev Termiziy, Sirojiddin Sayid, Eshqobil Shukur, Erkin A'zam, Usmon Azim shular jumlasidandir.

Ulkan qalb egasi, tanti adibimiz Tog`ay Murod Surxon zaminida yetishib chiqqan qalami o`tkir ijodkorlardan biri. Tog`ay Murod hayoti davomida ko`plab gazeta va jurnallarda mas'uliyatli vazifalarda ishllagan bo`lsa-da, bir zum ham ijoddan to`xtamagan. U o`z ijodini puxta tayyorgarlikdan so`ng 1976-yil "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidan boshladi. Bu qissa o`zbek adabiyotiga tug`ma iste'dod egasi kirib kelayotganidan darak berdi. Bunda Bo`ri polvon Tilovberdi, Abil polvonlar obrazlarida o`zbek milliy kurashi badiiy ifodasini topdi. Shundan so`ng "Ot kishnagan oqshom" qissasi bilan kitobxon qalbida qadrdon insonga aylandi. Tog'ay Murodni, avvalam bor, davrning ijtimoiy masalalari, insonning axloqiy qiyofasi, mehnatga, insonlarga bo'lgan munosabati tashvishga soladi. Burch, majburiyat, mehnatkashlik, jasorat, haqqoniylik, samimiylik, mehribonlik - shular yozuvchi badiiy so'z orqali ifoda etgan insoniy hislatlardir. Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasining qahramoni - oddiygina cho'pon yigiti Ziyodilla ham shunday hislatlarga ega bo'lgan.Adibning 1980-yilda chop etilgan "Oydinda

yurgan odamlar" qissasi esa adibninggina emas, o`zbek milliy adabiyotining noyob xazinasiga aylandi.

Hammamiz maktab darsligida "Yulduzlar mangu yonadi" qissasini o'qiganmiz va bu qissaning sohibi viloyatimizning Oltinsoy tumanidagi Xo'jasoat qishlog'ida 1948-yil tavallud topgan Tog'ay Muroddir. Adib o'z ijodini aynan mana shu qissa bilan boshlagan. ''Men faqat bir maqsadni ko'zladim: 30-35 yoshlargacha jahon adabiyotini o'qish, qo'l qotib qolmasligi uchun esa mayda-mayda hikoyalar mashq etib turish. Men shu niyat yo'lida imorat qurmadim, mansab, shon-shuhrat egallamadim, men dunyo talashmadim faqat izlandim; men go'dakligimdan davralarda kurashib katta bo'ldim, polvonlik ajdodimda, qonimda bor. Mana shu polvonlik qo'zg'aldi va nihoyatda sanoqli kunlarda "Yulduzlar mangu yonadi" nomli qissamni yaratdim" deya ta'riflaydi adibning o'zi. Bu qissa O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi hisobot yig'ilishida "Yilning eng yaxshi qissasi" deya baholangan va kitobxonlarga manzur bo'lgan. Quvonarlisi, Tog'ay Murod ijodiy izlanishlarining rang-barang hayotiy manbalar asosida ro'yobga chiqqanligidadir. U o'z asarlarida hayotdagi oddiy hodisalardan ulkan badiiy umumlashmalar chiqara olgan, qahramonlar olamini esa hayot haqiqati mezonida tasvirlagan. Jozibali, betakror milliy obrazlar yaratish, oddiygina xalq udumlarini yuksak milliy qadriyat darajasiga ko'tarish uning qissalari va "Otamdan qolgan dalalar" romanida adibning noyob iste'dodidan darak berib turadi.

Yozuvchining "Otamdan qolgan dalalar" asari ham hammaga birdek tanish va u zamonaviy romanga xos xususiyatlarni o'zida jamlagan bo'lib, yangi o'zbek romani mezonlarini birmuncha oydinlashtirdi. Ushbu romanda bir o'zbek dehqon sulolasining 3 vakili: bobo, ota va o'g'il taqdiri timsolida o'zbek xalqining istibdod ostida kechgan hayoti talqin etilgan. Asar syujetidagi Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlaridagi ona vatanni sevish, o'zgacha mehr ila e'zozlashi ularning umumiy jihatidir.

Tog`ay Murod o`zbek adabiyotidagi yangilanishni aynan milliylikka asoslanib yaratgani bilan ham ajralib turadi.Shoir Bahrom Ro'zimuhammadning bildirishida, Tog'ay Murod ijodi bugun nemis turkshunoslari tomonidan o`rganilmoqda. Tog`ay Murod asarlarining nemis tilida chop etilishi ehtimoli bor. Tog'ay Murod asarlarida so`nggi yuz yilda o`zbek millati boshdan kechirgan fojialarning aniq yaxlit tasavvuri mavjud. Bu tarixiy davrda o`zbek xalqi qanday yashaganini bu darajada aniq beruvchi boshqa yozuvchini misol keltirish qiyin. Shu bois ham Tog`ay Murod asarlarining targ`iboti muhim, deydi adabiyotshunoslar. Bugungi kunda Prezidentimiz farmoniga asosan Tog'ay Murod tug'ilib o'sgan Oltinsoy tumani Xo'jasoat qishlog'ida Togay Murod mahalla idorasi bunyod etildi. Bu joyda Tog'ay

Murod kutubxonasi, 150 o'rinlik faollar zali, uy muzeyi tashkil etilganligi har bir yo'lovchi va o'quvchilarga yangi ijod qilish imkoniyatlarini yaratdi.

Tog'ay Murod mohir tarjimon sifatida J. Londonning "Boyning qizi" dramasi va bir nechta hikoyalarini (1974–1975), Ye. Seton-Tompsonning mashhur "Yovvoyi yo'rg'a" asarini tarjima qildi (1989).O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asari asosida ikki qismdan iborat badiiy film yaratildi. Taniqli adib 1994 yil yozuvchi Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika mukofoti sovrindori bo'lgan, 1999 yil unga "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga sazovor bo`lgan.

Xulosa qilib aytganda, biz Surxon farzandlari bunday buyuk adiblarimiz bilan faxrlanamiz va ularning o`lmas asarlarini o`qib-o`rganib, badiiy jihatdan tahlil qilib, avloddan-avlodga yetib borishida o`z hissamizni qo`shamiz. Surxon adiblari nafaqat Surxon xalqining balki o`zbek adabiyotining yorqin namoyondalari ham hisoblanadi. Ular yaratgan asarlar chapani xalqimizning buyuk tarixi, yorqin kelajagi, bugungi hayotini ham qalamga olib o`z asarlarida hikoya qilgan. Bugun bu asarlarni o`rganib dunyo tillariga tarjima qilib, ularni yanada abadiylashtirib surxon adiblarini dunyoga tanishtiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

"O`zbek adiblari". S.Mirvaliyev
Saviya.uz